

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

**YOQILG'I YONISHINING ZAMONAVIY  
TEXNOLOGIYASI**

**ENERGETIKA**

**TOSHKENT-2023**

Mazkur ishchi o‘quv majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021 yil 25-dekabr 538-sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan o‘quv dastur asosida tayyorlandi

**Tuzuvchi:** t.f.n., dotsent K.S.Shamsiyev

**Taqrizchi:** D.N.Muxiddinov - TDTU, Energetika fakulteti, professori, t.f.d

O’quv uslubiy majmua Toshkent davlat texnika universiteti Ilmiy kengashining 2021 yil 29-dekabrdagi 4-sonli qarori bilan foydalanishga tavsiya qilingan

## **MUNDARIJA**

<b>I. ISHCHI DASTUR.....</b>	<b>4</b>
<b>II.MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TAЪLIMMETODLARI.....</b>	<b>11</b>
<b>III. NAZARIYMATERIALLAR.....</b>	<b>15</b>
<b>IV. AMALIYMASHG'ULOTMATERIALLARI.....</b>	<b>43</b>
<b>V. GLOSSARIY.....</b>	<b>60</b>
<b>VI. FOYDALANGAN ADABIYOTLAR.....</b>	<b>65</b>

## **I. ISHCHI DASTUR**

### **Kirish**

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda tasdiqlangan “Ta'lif to'g'risida”gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-son, 2019-yil 27-avgust “Oliy ta'limmuassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksizmalakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida”gi PF-5789-son, 2019-yil 8-oktyabr “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlarmahkamasining 2019-yil 23-sentyabr “Oliy ta'limmuassasalari rahbar va pedagog kadrlariningmalakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 797-sonli Qarorida belgilangan ustuvor vazifalarmazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'limmuassasalari pedagog kadrlarining kasbmahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, issiqlik elektr stantsiyalarida yoqilg'i tejamkorligini oshirish imkoniyatlari, yoqilg'ilarni bosqichma – bosqich yoqish usullari, issiqlik elektr stantsiyalaridagi bug' qozonlarida yoqilgini yoqish va issiqlik elektr stantsiyalarida organik yoqilg'ilarni yoqish jarayonida atrofmuhitmuhofazasi bo'yicha bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etishmalakalarini takomillashtirishnimaqsad qiladi.

## I. MODULNING MAQSADI VA VAZIFALARI

**Modulning maqsadi:** pedagog kadrlarning o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada ta'minlashlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma vamalakalarininimuntazam yangilash, malaka talablari, o'quv reja va dasturlari asosida ularning kasbiy kompetentligi va pedagogikmahoratini rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

**Modulning vazifasi:** zamonaviy talablarga mos holda oliy ta'larning sifatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasini oshirish, o'quv, o'quv-uslubiy jarayonlarni tashkil etishga kreativ yondashuvlarni shakllantirish, shuningdek pedagogikmahoratlarini takomillashtirishga qaratilgan.

Modul bo'yicha tinglovchilarining bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar

“Yoqilg'i yonishining zamonaviy texnologiyasi” modulni o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi;
- mutaxassisning amaliy faoliyatida fanning roli;
- bilimlarning bir butun tizimi bilan o'zaro bog'liqlikda ushbu fanning asosiymuammolari;
- o'zining bo'lajak kasbiningmohiyati va ijtimoiy ahamiyati;
- yoqilg'i-energiyamajmuasini rivoji tendentsiyalari haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- yoqilg'i qazib olish, ishlab chiqarish va ishlatish sohasidagi respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohatlar natijalari, hududiymuammolari, fan, texnika va texnologiya yutuqlari;
- yoqilg'i-energiyamajmuasidagi texnika va texnologiyalarni takomillashtirishning asosiymetodlari;
- yoqilg'ini yonish nazariyasi asoslari va turli yoqilg'ilarni samarali yoqishining umumiy printsiplari haqida texnik vama'lumotlar adabiyotini bilishi va ulardan foydalana olishi;
- issikliq texnikasining nazariy asoslarini;

- organik kimyo asoslarini;
- energetik qurilmalarni turlari va ularni ishlash printsiplarini;
  - energiya iste'mol qiluvchi qurilmalarni foydali ish koeffitsiyentlarini aniqlash;
  - oksidlanish, tiklanish, ekzotermik va endotermik reaktsiyalarni hisoblash va energetik qurilmalarni issiqlik balansini tuza olishi hisob-kitob bilan bog'liqmasalalarni hal etishda ko'nikmalariga ega bo'lishi;
  - yoqilg'i yoqish jarayonlari va texnologiyalarida energiya tejamkor qurilmalarni loyihalash va tanlash ko'nikmasini yangi metodlarini ishlab chiqish malakalariga ega bo'lishi kerak.

Modulning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan bog'liqligi va uzbekiyligi

Ushbu moduli "Yoqilg'i yonishining zamonaviy texnologiyasi" o'quv rejadagi "Bug' va gaz qurilmalarining taraqqiyoti asoslari", "Sanoat korxonalarida icciqlik energetik qurilmalarinimodernizatsiyalash va qayta qurish" va "Energiya ishlab chiqarish texnologiyasi vamarkazlarining istiqbollari"modullari bilan uzbekiy bog'langan.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

"Yoqilg'i yonishining zamonaviy texnologiyasi" kursima'ruza va amaliymashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

□ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

□o'tkaziladigan amaliymashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlardan, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o'tkazish, va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

Modulning oliy ta'limgagini o'rni

O'zbekiston Respublikasining energetika tizimini zamonaviy yuqori darajadagi samaradorlikka ega bo'lgan jihozlar va qurilmalar hisobiga rivojlantirish, energiya

resurslaridan foydalanish, elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash, o'zgartirish va iste'mol qilishda yuqori samaradorlikka erishish o'ta dolzarbmasala hisoblanadi. Ushbumuammoni hal etishda birinchi navbatdagi vazifa zamonaviy talablarga javob beruvchimutaxassislarni tayyorlash hisoblanadi.

### **Modul birliklari bo'yicha soatlar taqsimoti: 18 soat**

№	<b>Modul mavzulari</b>	<b>Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat</b>				
		jam'i	Nazariy	Amaliy	mashg'ulot	Ko'chmamas
						hg'ulot
1	Issiqlik elektr stantsiyalarida yoqilg'i tejamkorligini oshirish imkoniyatlari.	6		2	2	4
2	Yoqilg'ilarni bosqichma – bosqich yoqish usullari.	4	2	2		
3	Issiqlik elektr stantsiyalaridagi bug' qozonlarida yoqilgini yoqish.	4	2	2		
4	Issiqlik elektr stantsiyalarida organik yoqilg'ilarni yoqish jarayonida atrofmuhitmuhofazasi.	4	2	2		
	Jami:	<b>18</b>	<b>8</b>	<b>8</b>		<b>4</b>

### **NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

#### **1-mavzu: Yoqilg'ilarni bosqichma – bosqich yoqish usullari**

Gomogen va geterogen yonish jarayonlari. Kimyoviy bog'lanishlarining energetikasi. Gess qonuni. Reaktsiya tezligi va uning haroratga, bosimga va yonish aralashmalarning tarkibiga bog'liqligi. Yonuvchi aralashmalarning tarkibiga bog'liqligi. Qaytarilish reaktsiyasi va uningmuvozanat konstantasi. Zanjirli reaktsiyalar to'g'risida tushuncha. Yonuvchi aralashmalarning o'zaro alangalanishi, uning harorati vamiqdoriy chegaralari. Yonishdan oldin yonuvchi aralashmalarning hosil bo'lishi. Gaz oqimlaridamolekulyar va turbulent diffuziyasi.

## **2-mavzu: Issiqlik elektr stantsiyalaridagi (IES) bug' qozonlarida yoqilgini yoqish.**

Yondirg'ichlar yonish qurilmasining asosiy elementlari. Yoqilg'ini yoqish usullari. Yoqilg'ilarning uchuvchanmoddalari. Yonuvchi aralashmalarning alangananishini issiqlik nazariyasi. Qozon qurilmalarining yoqish kameralari. qish kameralarining turlari va chizmalari. Uyurmangan yondirgichlarning konstruktsiyasi. Yondirgichlarning joylashishi. Bug'li forsunkalarda yoqilg'i purkalishi.mexanik forsunkalar. Rotatsion forsunkalar. Gazsimon yoqilg'isini yonish jarayeni. Bug' qozonlarga gazsimon yoqilg'ini uzatish texnologik chizmasi

## **3-mavzu: IESda organik yoqilg'ilarni yoqish jarayonida atrof muhit muhofazasi.**

Kukunsimon yoqilg'ilarni yoqish jarayonlarini boshqarish. Qattiq yoqilg'ini yondirgich uskunalar, ularning turlari va joylanishi. Shlak hosil bo'lish jarayoni. Suyuq va qattiq shlak mahsulotlarini chiqaruvchi yoqish kameralari.

### **AMALIY MASHG'ULOT MAZMUNI**

#### **1-amaliy mashg'ulot: Yoqilg'ining quyi va yuqori yonish issiqlig'i orasidagi farqini aniqlash.**

Yoqilg'ining quyi yonish issiqligi esa yoqilg'i namlik miqdoriga bog'liq bo'ladi, shuning uchun yoqilg'ining issiqlik qiymatini amaliy baholash.

#### **2-amaliy mashg'ulot: Har qanday turdag'i yoqishda beriladigan havo miqdorini hisoblash.**

Quruq havoning nazariy hajmi  $B^0$  va ortiqcha havo koeffitsiyenti  $\alpha=1$  bo'lganda va yoqilg'i to'la yonganda hosil bo'ladigan yonishmahsulotlarining hajmi  $V_{RO_2}$ ,  $V_{N_2}$ ,  $V_{H_2O}$  lar[1,3] dagi jadvalma'lumotlaridan olinadi yoki quyidagi formulalar yordamida hisoblash.

#### **3-amaliy mashg'ulot: IESlaridagi qozon qurilmalarida yoqilg'ini yoqish uskunalar.**

O'txona kamerasining issiqlik hisobi. Markaziy qozon turbina instituti vamoskva energetika institutilari tomonidan ishlab chiqilgan qozonlarning issiqlik

hisobini me'yoriy usullarigamos ravishda va o'xshashlik nazariyasidan foydalanilgan holda va o'txona jarayonlarida nurlanishli issiqlik almashinish qonunlaridan foydalanilgan holda amalga oshirish.

#### **4-amaliy mashg'ulot: IESda organik yoqilg'ilarni yoqish jarayonida atrof muhit muhofazasi.**

O'txona kamerasi yoqilg'i yoqishning samarador jarayonini tashkil qilish uchun va yonish mahsulotlaridan qizdirish yuzasiga nurlanish orqali issiqlik uzatishni amalga oshirish.

### **TA'LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI**

Ta'limni tashkil etish shakllari aniq o'quv materiali mazmuni ustida ishlayotganda o'qituvchini tinglovchilar bilan o'zaro harakatini tartiblashtirishni, yo'lga qo'yishni, tizimga keltirishni nazarda tutadi.

Modulni o'qitish jarayonida quyidagi ta'limning tashkil etish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruza;
- amaliy mashg'ulot;
- mustaqil ta'lim.

O'quv ishini tashkil etish usuliga ko'ra:

- jamoaviy;
- guruhli (kichik guruhlarda, juftlikda);
- yakka tartibda.

**Jamoaviy ishlash** – Bunda o'qituvchi guruhlarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilib, o'quv maqsadiga erishish uchun o'zi belgilaydigan didaktik va tarbiyaviy vazifalarga erishish uchun xilma-xil metodlardan foydalanadi.

**Guruhlarda ishlash** – bu o'quv topshirig'ini hamkorlikda bajarish uchun tashkil etilgan, o'quv jarayonida kichik guruxlarda ishlashda (3 tadan – 7 tagacha ishtirokchi) faol rol o'ynaydigan ishtirokchilarga qaratilgan ta'limni tashkil etish shaklidir. O'qitish metodiga ko'ra guruhnini kichik guruhlarga, juftliklarga va guruhlarora shaklga bo'lish mumkin.


Bir turdag'i guruhli ish o'quv guruhlari uchun bir turdag'i topshiriq bajarishni nazarda tutadi.

Tabaqalashgan guruhli ish guruhlarda turli topshiriqlarni bajarishni nazarda tutadi.

**Yakka tartibdagi shaklda** - har bir ta'lim oluvchiga alohida- alohida mustaqil vazifalar beriladi, vazifaning bajarilishi nazorat qilinadi.

## **II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI**

### **B/BX/B JADVALI METODI**



## B-B-B metodi

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
<b>Sirtyi issiqlik almashinish kurilmalarni ko'rsatqichlar buyicha sinflanishi</b>		
	O'zbekistonda energiya tejamkorlikni amalga oshirish bo'yicha qanday hukumat qarorlari qabul qilingan?	O'zbekistonda energiya tejamkorlikni amalga oshirish bo'yicha qanday hukumat qarorlari qabul qilingan
	G'ilofli rivojlangan issiqlik almashinish yuzani yaratish usullari	G'ilofli rivojlangan issiqlik almashinish yuzani yaratish usullari
Havo bilan sovitish issiqlik almashinish kurilmalarni konstruktsiyala ri, ishslash printsiplari		
Energiya tejamlovchi texnologiyalarni va qurilmalarni qo'llashning axamiyati?		
	Gidralik qarshilikni pasaytirish uchun qanday uslub ko'llash lozim	Gidralik qarshilikni pasaytirish uchun qanday uslub ko'llash lozim
Qobiq quvurli sovutqichlarni konstruktsiyalarini o'ziga xosligi		
Qobiq quvurli IAQ temperaturali deformatsiyaga qarshi ma'lum bir uslub ko'llash.		

## **“Elpig'ich” metodi**

Bu metodi murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammo xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan.

Metodining mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir yo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobjiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Bu interfaol metodi tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

“Elpig'ich”metodi umumiymavzuning ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarning, har bir qatnashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

“Elpig'ich”metodi umumiymavzuni o'rganishning turli bosqichlarda qo'llanishimumkin.

-boshida: o'z bilimlarini erkin faolashtirish;

-mavzuni o'rganish jarayonida: uning asoslarini chuqur fahmlash va anglab yetish;

-yakunlash bosqichida: olingan bilimlarni tartibga solish.

### **“Elpig'ich” metodining afzaligi:**

- kichik guruhlarda ishslash mahorati oshadi;
- muammolar, vaziyatlarni turli nuqtai nazardan muhokama qilish mahorati shakllanadi;
- murosali qarorlarni topa olishi;
- o'zgalar fikrini hurmat qilish;
- xushmuomalalik;
- ishga ijodiy yondashish;
- faollik;

**“Elpig’ich” metodining kamchiligi:**

- ta’lim oluvchilarda yuqori motivatsiya talab etiladi;
- ko’p vaqt talab etilishi;
- shavqun siron bo’lishi;
- baholash qiyinchilik to’g’dirishi.

<b>Qobik quvurli issiqlik almashinuv qurilmalarining</b>	
<b>Afzalliklari</b>	<b>Kamchiliklari</b>
<b>Xulosa:</b>	

### III. NAZARIY MATERIALLAR

#### 1-mavzu: Yoqilgilarni bosqichma – bosqich yoqish usullari.

Reja

1.Yoqilg'ini yoqish usullari.

2. Yoqilg'ilarning uchuvchan moddalari.


3. Yonuvchi aralashmalarning alangalanishini issiqlik nazariyasi.

Tayanich suz va iboralar. Paragenerator, turbina, metan, etan, organik moddalar, suniy gaz, gorelka, sharikli tegirmon, dimosos, ventilyator, elektrofiltr.

#### 1.1 Yoqilg'ini yoqish usullari.

Hozirgi zamon o'txona texnikasida yoqilg'ini yoqishni asosan uch xil usulda – qatlamlili, mash'alali va uyurmali yoqish usullaridan foydalaniladi.

Qatlamlili yoqish – bu yoqilg'ini o'txona panjarasida qatlamlab yoqish usulidir (1.1.1-rasm).



1.1.1-rasm. Yoqilg'ini o'txona panjarasida qatlamlab yoqish.

1-o'txona; 2-panjara; 3-issiq qabul qiluvchi yuza.

Yoqilg'ining yonishi natijasida panjarada bevosita qo'l va shlakdan iborat g'ovak yostiq hosil bo'ladi. Uning ustida yonayotgan koks qatlami, ya'ni uchuvchan

moddalari chiqib ketgan yoqilg'i bo'ladi. Koks ustiga yangi yoqilg'i qatlami beriladi. Bu yerda u keltirilgan issiqlik yoki yonayotgan yoqilg'inинг va o'txona ichidagi qizigan qatlamning issiqligi hisobiga isiydi. So'ogra yoqilg'i quriydi, ya'ni undagi namlik bug'lanib ketadi, shundan so'ng sublimatlanish – uchuvchan moddalarning chiqishi□ va koks hosil bo'lishi boshlanadi.

Uchuvchanmoddalar va koksning yonishi natijasida issiqlik chiqadi va o'txona ichining harorati ko'tariladi. Havo, panjara teshigi va g'ovak shlakli yostiq orqali o'tib, isiydi. Havo keyingi harakati davomida o'z yo'lida koks va yoqilg'i qatlamiga duch keladi. Ular bilan o'zaro ta'sir etishib yoqilg'i qatlami ustida yonadigan o'txona gazlari oqimiga aylanadi va qatlam usti aylanasini hosil qiladi. Bu hol yuqori qatlamlarning tez alangalanishini va barqaror yonishini ta'minlaydi. Yonish paytida hosil bo'lgan tutun gazlar o'z issiqligini qozonni isitish sirtlariga beradi va quvurdan chiqib ketadi.

Yoqilg'ini qatlamlab yoqish jarayonining o'ziga xos xususiyati yoqilg'i zarralarini qatlamda barqaror joylashishi zarurligidadir. Bunda o'txona panjarasida yotgan yoqilg'i zarralari va bu zarralarga kelayotgan havo tezligi shunday bo'lishi kerakki, zarralar qatlamdan uchib ketmasligi lozim. Havoning harakat tezligi katta bo'lganda yoqilg'i zarralarini havo qatlamidan uchirib ketadi va ular yonmay, tutun-gazlar bilan birga chiqib ketadi.[4]

Qatlamlab yoqishda o'txonada doimo yonayotgan yoqilg'inинг anchagina zahirasi bo'ladi, bu esa o'txonaning barqaror ishlashiga va qozonning yuklamasi o'zgarganida o'txonaning ishini dastlab faqat yoqilg'i qatlamiga berilayotgan havoningmiqdorini o'zgartirish yo'li bilan rostlashga yordam beradi.

Mash'ala qilib yoqish usulida yoqilg'i va yonish uchun zaruriy havo o'txonagamaxsusmoslamalar yordamida yuboriladi. Yoqishning mash'ala usuli yoqilg'i zarralarini havo oqimi va yonishmahsulotlari bilan birgalikda to'xtovsiz harakatlanib turishi bilan qatlamlab yoqish usulidan farq qiladi. Shuning uchun qattiq yoqilg'i chang holatiga keltirilishi lozim. Kukun zarralarining o'lchami mikronlar bilan o'lchanadi. Yoqilg'inинг bunday ishlanishi tufayli yoqilg'inинг havo

kislородига tegish va reaktsiyaga kirishish sirti kattalashadi. Kamerali o'txonada harorat taqsimlanishi 2-rasmda ko'rsatilgan.


Suyuq yoqilg'ida ballast deyarli bo'lmaydi, shuning uchun u faqat mash'ala qilib yoqiladi. Yoqish paytida yoqilg'ini butunlay to'zitib yuborish kerak. Yoqilg'i yaxshi to'zitilmasa yonish mahsulotlari ichida ko'p miqdorda yonmagan sof uglerod C, uglerod-oksid CO va og'ir uglevodorodlar  $C_nH_m$  qolishi mumkin.

Suyuq va qattiq yoqilg'iga qaraganda gaz yoqilg'ini mash'ala usulida oson va yaxshi yoqish mumkin. Lekin barcha yoqilg'ini yoqishdagi singari, uni ham havo bilan yaxshi aralashtirish lozim.

Yoqilg'ini uyurmaviy usulda yoqish, o'txonada hosil qilingan gaz-havo uyurmasi bo'lishi bilan tavsiflanadi. Oqimlar yoqilg'ining havo bilan yaxshi aralashishiga imkon beradi, bu esa yoqilg'ini yanada to'liq yonishini ta'minlaydi (rasm.2.1.2).

Uyurmaviy usulda qattiq yoqilg'ini chang holida emas, balki yaxshimaydalangan bo'laklar holida yoqishmumkin.

Yoqishning bu usulida o'txonada yoqilg'i zahirasimash'ala usulidagiga qaraganda ko'p, lekin qatlam usulidagiga qaraganda kam bo'ladi. Shuning uchun yoqishning uyurmaviy usulining barqarorligimash'ala usulidagiga qaraganda katta, qatlam usulidagiga nisbatan esa kichik bo'ladi.



1.1.2 -rasm. Changsimon yoqilg'ining kamerali yondirishdagi izotermalar:

a-qattiq shlakni chiqarib tashlash; b-suyuq shlakni chiqarib tashlash;

1-sovuq voronka; 2-o'txona osti; 3-suyuq shlakni chiqarish moslamasi.

## **1.2 Yonishdan oldin yonuvchi aralashmalarining xosil bulishi.**

Yoqilg'i yonish jarayonida undan gaz va bug'larning ajralib chiqishi bilan kuzatiluvchi murakkab o'zgarishlar yuz beradi. Uchuvchan moddalarga vodorod H, har-xil  $C_mH_n$  tipidagi uglevodorodlar, uglerod oksidlari CO va  $CO_2$ , suv  $H_2O$ , yog'li va qatronli (smolali) moddalarning bug'lari kiradi.

Bu uchuvchan moddalarning chiqishi birinchidan, ko'mir moddasining ichki tuzilishi haqida tasavvur bersa, ikkinchidan, yoqilg'i yonishida katta rolъ uynaydi. Shuning uchun ham uchuvchan moddalarning chiqishi, yoqilg'inining asosiy ko'satkichlaridan biri deb hisoblanadi. Termik parchalanish va yengil moddalarning yoqilg'idan chiqarib tashlagandan keyin qolgan koks qoldig'i, asosan ugleroddan (97%) tashkil topgan bo'ladi. Koks qoldig'i yopishgan, quyma holatda yoki alohida-alohida bo'laklardan tashkil topgan bo'lishi mumkin. [3]

Uchuvchan moddalarning chiqishi va qattiq yokilg'ilarning qoldiq (koks) tavsifi 2.2.1 – jadvalda berilgan.

Uchuvchan moddalar qanchalik ko'p chiqsa, ko'mir shunchalik tez yonadi. Agar antratsitni yonishi uni barabanli tegirmonda maydalashni va yondiruvchi belbog'li qurilmalarni talab etsa, qo'ng'ir ko'mirni shaxtali tegirmonlarda yirikroq maydalab yoqish mumkin.

**Jadval 2.2.1.**

Yoqilg'i	Uchuvchanmoddalar chiqishining bosh- lang'ich harorati, ®C	Yonuvchimassa- dagi uchuvchanmoddal ar, %	Koks(qoldiq) xossalari
O'tin	160	85	Yopishgan
Torf	100-110	75	Kukunsimon
Qo'ng'ir ko'mir	130-170	40-60	Kukunsimon

Toshko'mir: uzun alangali bug'li, yog'li yog'siz	170 260 390	40-50 25-35 17	Kukunsimon yoki yopishgan Birikkan, quyma holida Kukunsimon
Antratsit	280-400	4-19	Kukunsimon
Yonuvchi slanetslar	250	80-90	Kukunsimon

Yopishqoqlik xususiyati ham termik ishlov berish natijasida paydo bo'ladi. Eriqan, yumshoq holatdagi ko'mir qismi, erimagan ko'mir qismini o'ziga biriktirib, evtektik massani tashkil etadi. Haroratni yanada oshirilishi natijasida bu massa qota boshlaydi va yopishgan, quyma va kukun qoldiqlarini hosil qiladi. Qoldiqnin gmustaqkamligi eruvchan va erimaydigan ko'mir komponentlarining nisbatiga, ya'ni uning kimyoviy tarkibiy qismiga bog'liq bo'ladi.

Shunday qilib, uchuvchan moddalarning chiqishi va yopishuvchanligi, yoqilg'ining zarur tavsiflaridan biri bo'lib, uning kimyoviy tarkibiy tuzilishini bildiradi.

### 1.3 Yonuvchi aralashmalarning alanganishini issiqlik nazariyasi

Havo tarkibidagi kislород ta'sirida yoqilg'ining oksidlanish reaktsiyasi (ta'sirlashuvi) haroratning keng oralig'ida ya'ni past haroratlarni hisobga olganda ham ro'y berishi ko'rib chiqilgan. Reaktsion tizimning past haroratlari oksidlanishida katta (muhim) o'z – o'zini qizitish ro'y bermaydi, chunki ajralib chiqqan issiqlik tarqalishiga ulguriladi. Issiqlik olib ketish Q<sub>O.K</sub> intensivligi qancha ko'p issiqlik ajralishidan Q<sub>A.Ж</sub> kichik bo'lsa shu hlda, alanganishi, ya'ni yonuvchi aralashmaning yonishi (ko'zatiladi) ro'y berishi mumkin. Rasmida reaktsion tizimning chegarasida T<sub>o</sub> o'zgarishi Q<sub>O.K</sub> va Q<sub>A.Ж</sub> larning munosabati ta'sirining o'zgarishi ko'rsatilgan. Alanganish kritik sharoitiga T<sub>o</sub> harorat to'g'ri keladi. Aralashmaning alanganish harorati sifatida qabul qlinadi. [5]

Alangalanuvchi aralashmaning tez o'zini qizitish Q<sub>AЖ</sub> - Q<sub>O.K</sub> > O issiqlik holda harorat va almashinishi o'zaro ta'sirlashuv sharoitiga bog'liq. Haroratning oshishi kimyoviy reaktsiya tezligini oshiradi, demak, issiqlik ajralish tezligi ham oshadi: bunda Q<sub>AЖ</sub> - Q<sub>O.K</sub> farq oshishi natijasida haroratning keyingi ko'payishi tezlashadi. Belgilangan tartibda ishlovchi bug' qozonining o'chog'ida yoqilg'inинг alangalanishi real sharoitlari shu bilan harakterlanadiki, unda o'chog' gazlarimuhitiga yoqilg'i havo aralashmasi alangalanishi kritik haroratidan ancha yuqori bo'lган haroratda kiradi u bilan yoqilg'ini tez alangalanishi va aktiv yonishi ta'minlanadi.

### **Nazorat savollari**

- 1.Uchuvchanmoddalarining tarkibi kanday?
2. Uchuvchan moddalar yoqilg'ini yonish jarayeniga kanday ta'sir qiladi?
3. Uchuvchan moddalarining chiqishi yoqilg'inинг nimasiga tasavvur beradi?
4. Yopishqoqlik xususiyati ko'mirda qachon paydo bo'ladi?
5. Alangalanuvchi aralashmaning tez o'zini qizitish uchun nimaga bog'liq?
6. Havo tarkibidagi kislorod ta'sirida yoqilg'inинг qaysi reaktsiyasi

Foydalangan adabiyotlar.

1. Zhongyang Luo Michaliq Agranioti, Low-rank Coal for Power Generation, Fuel and Chemical Production, 2017
2. Tom Robl Anne Oberlink Rod Joneq, Coal Combustion Product (CCP), 2015
3. Rafael Kandiyoti Alan Herod Keith Bartle Trevor Morgan, Solid Fuel and Heavy Hydrocarbon Liquid: Thermal Characterization and Analysis, 2016
4. Raximjonov R.T., Xoshimovam.A., Alimov X.A., «Yoqilg'i va yenish asoslari». -Toshkent. ToshDTU. 2002

5. Shoislomov A.Sh., Alimbayev A.U., Toshboyev N.K. «Yoqilg'i va yonish asoslari». – T.: TDTU 2001

6. Mingazov R.F. «Qozon qurilmalari» - T.: ToshDU. 2006

7. Alimbayev A.U, Shoislomov A.Sh., Toshboyev N.K. «Yoqilg'i va yonish asoslari». Ukuv qo'llanma. TDTU 2001.

## **2-mavzu: IES lardagi bug' qozonlarida yoqilg'ini yoqish.**

Reja

1. Qattik yoqilg'ini tug'ri oqimli yondirg'ich uskunalari.
2. Uyurmalangan yondirg'ichlarning konstruktsiyasi.
3. Suyuk va gazsimon yoqilg'ilarni yonish jarayonlari.

Tayanich suz va iboralar. Paragenerator, turbina, metan, etan, organik moddalar, suniy gaz, gorelka, vozduxopodogrevatel, sharikli tegirmon, dimosos, ventilyator, elektrofiltr.


### **2.1. Qattik yoqilg'ini tug'ri oqimli yondirgich uskunalari.**

Yondirgichlar yonish qurilmasining asosiy elementi hisoblanadi, aralashmaning hosil bo'lishi uning o'txonada joylashuviga bog'liqdir, o't olish jadalligini aerodinamik yonish kamerasi aniqlaydi, tezlik va to'liq yonish, issiqlik quvvatini va o'txonaga o'z samarasini beradi.

Changli yondirgichlar to'g'ri oqimli va uyurmalangan bo'ladi. Chang holatidagi yoqilg'ini va tabiiy gazni yondirishda chang-gazli aralashma yondirgichlar qo'llaniladi. Aralashma yondirgichlar uch xil yoqilg'ini yondirishda ishlatiladi (qattiq, gaz, mazut). Uyurmalangan yondirgichlar orqali chang havo aralashmasi va ikkilamchi havo uyurmaviy oqim ko'rinishida beriladi va o'txona hajmida konus simon yoyilgan alanga hosil bo'ladi. Bu xildagi yondirgichlar aylana kesimida bajariladi.

Oqimni ancha past turbulizatsiya bo'lishi munosabati bilan to'g'ri oqimli yondirgichlar, kichik kengayish burchakli birlamchi va ikkilamchi oqimlarni bo'sh aralashtiruvchi uzoq masofali yo'naltirilgan oqimni hosil qiladi. Shuning uchun yoqilg'ini muvaffaqiyatli yoqishda, o'zaro harakatlanishning oqishi har xil


yondirgichlarning o'txona kamerasida erishiladi. Ular qo'zg'almas yoki ishlashi burama bo'lib kamerada o'rnatilishimumkin va o'txonaning rejimini sozlash ishlarini osonlashtiradi (a-rasm).



Rasm 2.1.1. To'g'ri oqimli chang-ko'mir yondirgichlari:

a – chang chiqishida aylanadigan o'rnatma; b – issiq havoning markaziy kanali bilan; 1 – chang-havo aralashmani keltirish; 2 – issiq havo keltirish; 3 – chang-havo aralashma chiqishi; 4 – issiq havo chiqishi; 5 – o'txonadagi gazlar oqimga so'rilishi.

To'g'ri burchakli yondirgich turi, balandligi bo'yicha tepaga cho'zilgan. U o'zining yuqori enjektsiyasi yordamida atrof gazmuhitning yon tomonlama oqish xususiyatiga ega. Shuning uchun bu turdag'i yondirgichlar tashqi aerochangni uzatishda (b-rasm) ichki changni uzatishda yondirgichdan oldin alanga olishni hosil qiladi. To'g'ri oqimli yondirgichlar nisbiy unumдорligi katta bo'limgani uchun, katta quvvatli bug' qozonlarda bloklar sifatida ishlatiladi (2.1.1rasm).



Rasm 2.1.2. Ikkita to'g'ri oqimli yondirgichdan iborat blok:

1-chang-havo aralashmasi; 2-ikkilamchi havo

To'g'ri oqimli yondirgichlarda yondirish uchun asosan yuqori reaktsion yoqilg'ilar ishlataladi: qo'ng'ir ko'mirlar, torf, slanets va yuqori (reaktsion) uchuvchan moddali tosh ko'mirlardir. Yondirgichdan chiqishda chang-havo aralashmasining tezligi quyidagicha:  $\omega_1=20\div28\text{m/c}$ , ikkilamchi havoning optimal tezligi  $\omega_2=(1.5\div1.7)\omega_1$ .

O'txona kamerasining devoridagi yondirgichlar shunday taqsimlanadiki, yadro alangasida yoqilg'inining maksimal to'liq yonishini ta'minlash uchun, o'txonadan berilgan qattiq yoki suyuq shlaklarni chiqarib tashlash uchun qulay sharoitlarni ta'minlash va o'txona kamerasi devorlarida shlaklanishga imkoniyat bermaslik kerak. Yondirgichlarning turlarini tanlashda va optimal joylashuvining ayni ishchi tavsifi hisobga olinadi.

Demak, to'g'ri oqimli yondirgichlarni uyurmalangan yondirgichlar bilan solishtirganda shuni ko'rish mumkinki, uyurmalangan yondirgichlar o'zining uzunligi bo'yicha qisqa alanga va keng burchak ochilishini hosil qiladi. Birlamchi va ikkilamchi havo oqimining shiddatli aralashuvi uyurmalangan harakat energiyasi hisobiga bo'lib hosil bo'lib, yoqilg'inining alanga yadrosida to'liq yonishini ta'minlaydi (90-95 % gacha).

Yoqilg'i changining kerak bo'lgan yonish jadalligi uchun yoqilg'i aralashmasini tayyorlash yondirgich qurilmasida erishiladi va u yondirgich deb ataladi. 70-1300 S haroratda maydalash jarayonidan va quritishdan so'ng olingan yoqilg'i changi birlamchi havo oqimi orqali yoqilg'i kamerasiga puflanadi;

250-420°C haroratda bu yerga yondirgich orqali ikkilamchi havo kelib tushadi. Demak, yondirgichlar o'txonaga 2 xil oqimni uzatadi – changhavoli aralashma va ikkilamchi havo. Yoqilg'i aralashmasining hosil bo'lishi, o'txona kamerasida tugatiladi.


To'g'ri oqimli yondirgichlar ko'pincha o'txona parallel oqim aerochangini va ikkilamchi havoni uzatadi. Birinchi navbatda aralashgan oqimning o'txona devorida yondirgichlarning o'zaro joylashishi va zarur bo'lган o'txona hajmida

aerodinamik oqimni hosil qiladi. Bu yondirgichlar kesimda ikki xil bo'lishi mumkin: aylana va to'g'riburchakli.

## 2.2. Uyurmalangan yondirgichlarning konstruktsiyasi.

Uyurmalangan yondirgichlar quyidagi turlarga bo'linadi:

- ikkichig'anoqli uyurmaviy aerochanglar va chig'anoqli apparatda ikkilamchi havo aylantiriladi (2.2.1 a-rasm);
- to'g'ri oqimli – chig'anoqli, to'g'ri oqimli kanalga aerochang tushib, sochgich tomonga uzatiladi, chig'anoqli apparatda esa ikkilamchi havo aylanadi (b-rasm);
- chig'anoq-kurakli-aerochang oqimini chig'anoq aylantiradi, ikkilamchi havoni esa aksial aylantirgich yordamida (c-rasm).
- ikki kurakli – ikkilamchi havo va aerochang aksial va tangentsial kuraklar yordamida aylantiradi(3.2.1-




rasm).

2.2.1-rasm. Uyurmali yondirgichlar turlari: a – ikki chig'anoqli uyurmalli yondirgich; b – to'g'ri oqimli chig'anoqli yondirgich; s – chig'anoqli kurakli yondirgich; d – ikki kurakli yondirgich; 1 – chang-havo aralashma chig'anog'i; 1' – chang-havo aralashma kirish patrubkasi; 2 – ikkilamchi havo chig'anog'i; 2' – ikkilamchi havoning kirish qutisi; 3 – chang-havo aralashmani o'txonaga uzatish kanali; 4 – shu ham ikkilamchi havo uchun; 5 – asosiy mazut forsunkasi; 5' – mazut forsunkasi; 6 – chang-havo aralashmani chiqishida kesib tarqatuvchi; 7 –

ikkilamchi havo kurakli aylantiruvchi; 8 –markaziy havo uchlamchi uzatish kanali; 9 – kesib tarqatuvchi holini rostlash; 10 – havo oqimini aylantiruvchi; 11 – o'txona qoplamasи; P – o'txonadagi gazlarni alanga tomiriga so'rish.[7]

Uyurmalangan yondirgichlar ishlab chiqarish samaradorligi 1 dan 3,8 kg gacha shartli yoqilg'ilar, 25 dan 1000mVt gacha bo'lgan issiqlik quvvatini aniqlaydi. Ko'p tarqalgan bu ikki chig'anoqli va chig'anoqli-kurakchali yondirgichlar, katta issiqlik quvvati uchun ishlatiladi (75-1000mVt).

Uyurmalangan yondirgichlar o'zining kuchli enjektsiyasi issiq o'txona gazining chang havo aralashmasiga kelib tushishi bilan ajralib turadi, buning natijasida tez qizib, alanganish haroratigacha olib keladi (3.2.2-rasm)



2.2.2. rasm. Uyurmali yondirgichdan chiqishda aralashma hosil bo'lishi:  
I-chang-havo aralashmasi; II-ikkilamchi havo


Chang-havoli aralashma va ikkilamchi havo yondirgichdan chiqishda ikkita tarqalgan kesilgan konusni hosil qilib, ikki qismida qo'shimcha ravishda so'riliш zonasida yuqori haroratli gazning yonish yadrosida hosil bo'ladi. Bu jarayonga o'txonadagi qancha ko'p issiq gazlar kiritilsa, shuncha gaz o't olib, yoqilg'i yonadi.

Yondirgichlar "yakka tartibli" bo'lib, har biri alohida o'zining yoqilg'i yoqishini ta'minlaydi Pasmda uyurmalangan ko'mirchangli yondirgichlarning joylashuv chizmasi ko'rsatilgan

Chizmada uyurmali yondirgichlar frontalli va ikki frontalli (rasmda a, b) balandligi bo'yicha bir yoki ikki yarusli bo'lib bajarilishimumkin. Bir frontal bo'ylab joylashganda ekranning orqa devori kuchli issiqlik oluvchanlikni kuchli qabul qiladi (10-20% o'rtachadan yuqori) va devordagi shlaklanishni yo'qotish uchun o'txona taranligi  $b = (6 \div 7) \cdot \Delta_a$  bo'lishi lozim,

bu yerda:  $D_a$  – yondirgichning ambrazura diametri.

Katta quvvatli bug' qozonlarida bir frontalli devorda kerakli yondirgichlarni joylashtirish mumkin bo'lmasa yondirgichlarning qarama-qarshi bo'lib ikki frontalli joylashuvi muhimdir. [4]



2.2.3-rasm. Uyurmali chang-ko'mir yondirgichlarning o'txona devorlarida joylashishi:

- a – frontalli ikki yarusli;
- b – frontalli ikki tomonli bir yarusli;
- s – yon tomonli bir yarusli.

### **2.3. Suyuq va gazsimon yoqilg'i larini yonish jarayonlari.**

Mazutning yupqa purkalishi uchun markazdan qochirma forsunkalar qo'llanilib, bu forsunkalar havoni yetkazib beradigan va uni uyurmalovchi asboblar – registrlar bilan birgalikdamazut yondirgichlarini tashkil qiladi. Purkash usulidan qat'iy nazar, forsunkalar quyidagicha bo'ladi: mexanik, bug'mexanik, bug'li va rotatsion.

Mexanik purkashda mazut oqishining kinetik energiyasi qo'llanilib, bosim orqali yoqilg'i nasosi hosil qilinadi. Forsunka soplidan bosim ta'sirida katta tezlikda chiqqan paytida, mazut yupqa purkalanadi.

Bug'li forsunkalarda yoqilg'i purkalishi forsunkadan oqib chiqayotgan bug' oqimining kinetik energiyasidan foydalanish hisobiga olib boriladi, mazut esa forsunkaga kichik bosimda ham yetkazib berilishi mumkin.


Oxirgi vaqtda mexanik va bug' forsunkalardan tashqari aralash bug' mexanik forsunkalar keng qo'llanilib. ularning ishi purkashning bu ikkala usuldagi birgalikda ishlanishidan iboratdir.

**Rotatsion forsunkalar.** Markazdan qochirma kuchlar hisobiga mazutni yupqa purkash uchun va uni o'txonaga konussimon tarqatib berish uchun qo'llaniladi.

**Mexanik forsunkalar.** Bular eng ko'p tarqalgan forsunkalar turidir. Bu holatdamazut purkashi ortiqcha yuqori bosim berish hisobiga bo'ladi (2.5-4.5mPa). mazut bir necha kanalli forsunkalar orqali girdobli kameraga uzatiladi va chiqishda aylantirilgan mazut diametri  $d_0$  soplolar orqali o'txonaga purkaladi.

Shunda jadallik bilan aylanish girdobi hosil qilinib, natijada katta tezlikda (80m/s-gacha) soplordan suyuq yoqilg'i konussimon bo'lib oqib chiqadi.


Bug' qozonida yuklama kichik bo'lganda mexanik forsunka bug' -mexanik rejimida ishlatiladi. Buning natijasida yoqilg'i purkash sifatini pasaytirmasdan rostlash diapazonini 100-20% oraliqda bo'lishi amalga oshiriladi. Bug'-mexanik forsunkalar ikkita kanalni o'z ichiga oladi, mazut va bug' ikki kanal orqali forsunka bosh qismiga tushadi (0,4-0,9mPa bosimida). Bu yerda markazdan qochirma uyurmalangan kamera o'rniiga konus-sochgich aksial apparat ishlatiladi. Bug' oqimi katta tezlikda purkalgan mazut oqimi o'zining energiyasi hisobiga mazut tomchilarini parchalashda qo'llaniladi. Bug' sarflari mazut sarflari purkalishining 10% dan oshmasligi kerak. Bundan tashqari uncha ko'p miqdorda bo'limgan bug'lar, alangalanish yadrosiga kelib tushib, faol markaz reaktsiyasi hisobiga yonish reaktsiyasini faollashtiriladi [5].



2.3 1.- rasm. Suyuqlikning soplordan chiqishidagi harakati va purkalishi:  
1-soplo; 2-kirish kanali

Bug'-mexanik forsunkalar unum dorligi mazut bo'yicha 5-7m/soatni tashkil etadi. Ular katta quvvatli bug' qozonlarida chuqur diapazonda rostlash uchun ishlataladi.

Bug' forsunkalarda yuqori samaradorligi katta tezlikka ega bo'lgan (1000m/s gacha) bug' oqimi mazutni o'zi bilan birga oqizib ketishi hisobiga erishiladi. Bug'li forsunkaning afzalligi bu forsunkalarning oddiyligi hamda mazutni qizitish harorati (800S – gacha) uncha yuqori bo'limgan haroratga yuqori sifatda purkalishidan iboratdir. Lekin, bug' forsunkalar kam ishlatalib, ular asosan yoqilg'idan oldin qattiq yoqilg'i yoqadigan elektr stantsiyalarda qo'llaniladi. Uzoq muddat ishlaganda katta bug' sarflari bo'lgani uchun ular tejamli emas (mazut sarfidan 40-60%).



2.3.2. rasm. Mazut bug'-mexanikli forsunka: a – forsunka; b – taqanining bo'ylama kesimi; 1 – mazut uzatilishi; 2 – bug'ni halqali kanalda uzatish; 3 – taqanining korpusi; 4 – aksial aylantirgich; 5 – kesib tarqatuvchi.

**Rotatsion forsunkalar.** KVGM turkumli suv isitgich qozonlarida mazutni yoqish uchun rotatsion forsunkalar ishlataladi. Forsunkalar o'rtacha quvvatli elektrodvigatel bilan ta'minlangan bo'lib, purkali konusini juda katta chastota bilan aylantirib beradi. Mazut ortiqcha purkash uchiga bosim bilan uzatiladi va tez aylanuvchi konus sirtini ichki tomoniga kiritiladi. Bu yerdan markazdan qochirma kuch hisobiga mazut konus sirti bo'ylab yupqa qatlam va mayda zarrachalar ko'rinishida o'txonaga uzatiladi. Alanga yadrosidan tarqalgan issiqlik hisobiga konus sirti bo'ylab harakatlanuvchi mazut qatlami qisqa vaqt ichida intensiv qizdirishi mumkin.

## **Gazsimon yoqilg'isini yonish jarayoni.**

Bug' qozonda gaz yoqilg'isini kinetik yonish nisbatan kam qo'llaniladi, chunki yonuvchi gazni uning to'liq yonishi uchun kerak bo'lgan havo aralashmasi bilan u o'chog'da kam nurlanish qobiliyatiga ega bo'lgan va past yorug'lik tarqatuvchi fakel hosil qiladi. O'chog'da nurli issiqlik almashinuvini jadallashtirish uchun fakelni nur tarqatish qobiliyatini oshirish o'chog'ga yoqilg'i va havoni alohida berish orqali erishiladi. Bu holda o'chog'ga kiruvchi yonuvchi gaz dastlab oksidlovchi kam bo'lgan sharoitda o'chog' gazlari yordamida isitiladi.

Gaz yoqilg'isi tarkibini issiqa chidamli va issiqa chidamli bo'limgan komponentlarga bo'linadi. Issiqlika chidamli bo'limganlarga uglevodrodlar kiradi, xususan metan kislorodsiz muhitda 400 -600 °C gacha qizitilganda ular parchalana boshlaydi. Parchalanishning so'nggi mahsulotlaridan biri ugleroddir:  $\text{CH}_4 \rightarrow \text{C} + \text{H}_2$ . Bu mayda zarracha qurim shaklida ajraladi: Qurim havo oqimi bilan aralashib, unda yonib ketadi, bunday jarayon kuchli issiqlik va yorug'lik tarqalishi bilan kechadi. (kuzatiladi)

Gaz yoqilg'isi yonish jarayonining intensivligi alohida beriluvchi o'chog'ga havodan o'chog' hajmida (ichida) havo va yoqilg'i oqimlarining aralashi intensivligi bilan aniqlanadi. Aralashmaning muhim sharti bu moddalarning diffuzion o'tishiga, Shu sababli gazni bunday yonish usuli diffuzion deb ataladi.[7]

Yoqilg'ini to'liq yonishini diffuzion yondirishida erishish oson emas chunki o'chog'da havo bilan yonuvchi gazni to'liq va tez aralashishini ta'minlash qiyin. Bu masala shu bilan murakkablashadiki, aralashish kerak bo'lgan yoqilg'i va havo hajimlari bir-biridan 20 karra farq qiladi.


Aralashmaning qoniqarli effektiga erishish uchun ko'pgina diffuzion va kinetik orasidagi oraliq yonish usuliga murojat qilinadi: yonuvchi gazni

o'chog'ga berishdan oldin u to'liq yonishi uchun kerak bo'lgan havo bilangina aralashtiriladi ("birlamchi" havo bilan) qolgan qismini ("ikkilamchi" havo) alohida paralel oqimda yuboriladi. Yoqilg'i aralashmasi birlamchi havo bilan yondirgichni markaziy kanali orqali o'chog'iga yuboriladi, ikkilamchi havo markaziy kanal atrofida joylashgan aylanma kanal orqali beriladi. Markaziy

kanaldan chiqishda qisqa kinetik yonish (zonasi) orqali hosil bo'ladi, unda birlamchi havo yonishida butunlay sarflanadi. Keyingi uzun oraliqda yoqilg'i yonish maxsulotlari mavjud, oraliqda hosil bo'ladigan va yoqilg'inining oksidlovchisiz yuqori haroratda qizigan yonmagan qismi oraliqda yonmagan yoqilg'i havo bilan aralashi yalpi – bu diffuzion yonish oralig'i, yuqori nurlanish xususiyatiga ega.

Bug' qozonlarga gazsimon yoqilg'ini uzatish texnologik chizmasi.

Elektr stantsiyaga gaz 0,7-1,3mPa bosimli gaz taqsimlash stantsiyasi yoki magistral gaz quvurlari orqali keladi. Elektr stantsiyalar gaz saqlovchi omborga ega emas. Yondirgichlarda yonadigan gazni kerakli 0,13-0,2mPa bosimgacha tushirish uchun gaz taqsimlash markazi (GTM) da drossellanish hosil qilinadi. Portlash xavfi bo'lganligi va drossellash vaqtida qattiq shovqin chiqqanligi uchun bu GTM lar issiqlik elektr stantsiyalar chetida alohida joylashadi. Gaz yoqilg'isini uzatishning texnologik chizmasi 17.2 – rasmda



ko'rsatilgan.

1. 2.3.3 -rasm. Tabiiy gazda ishlovchi elektr stantsiyani gaz bilan ta'minlash chizmasi: 1-gaz magistrali; 2-elektr yuritmali gazli surma qopqoq; 3-gaz tiqinli surma qopqoq; 4-filtr; 5-bosim rostlagichi; 6-saqlagich klapani; 7-baypasli liniya; 8-sarf o'lchagich; 9-gaz sarfi rostlagichi; 10-tez harakatlanuvchi klapani; 11-boshqariladigan gazli surma qopqoq; 12-probkali kran; 13-gazli

sham(svecha); 14-gazli yondirgich; 15-gaz quvurini bosimli havo bilan purkash quvuri; 16-yondirgichning zapalnikiga gaz uzatish.

2. Har bir GTM da bir nechta (ko'pincha uchta) bosim rostlagichlari o'rnatilgan gaz quvurlari mavjud, ammo bularning bittasi doimo zahirada turadi. Bundan tashqari rostlagichlardan alohida baypas tizimi ham bor. Gazni har xil chiqindilardan tozalash maqsadida rostlagich klapanlar oldida fil'trlar (tozalagichlar) bor.[5]

3. Rostlagich klapanlar "o'zidan keyingi" kerakli bosimni ushlab turishga xizmat qiladi. Favqulotda (avariya) holatlarda gaz bosimi keragidan ortiqcha ko'tarilib ketganda, saqlogich klapanlar ishlab, gazni havoga chiqarib yuboradi va gaz quvuridagi kerakli bosimni saqlab qoladi. Qozonga kelgan gaz quvurining asosiy qurilmalari gaz sarfining avtomatik rostlagichi va tez ishlaydigan kesuvchi klapandir.

4. Gaz sarfining avtomatik rostlagichi bug' qozondagi doimiy issiqlik quvvatini ta'minlab turadi. Gaz kelishida portlash xavfi tug'ilganda impulsli rostlagich qozonga gaz kelishini avariya holatda (o'txonada mash'al o'chib qolsa, yondirgich oldida havo bosimining kamayishi, tutun so'rgich va havo uzatuvchi ventilyatorlar to'xtab qolishi va hakozolar) to'xtatadi. Quvurlarni ta'mirlashdan oldin ishlamay turgan paytida paydo bo'lishi mumkin bo'lган portlovchi gaz va aralashmalarni yo'q qilish uchun quvurlar havo yordamida tozalanadi. Quvurlarni tozalagan gazni xavfsiz bo'lган joylarga chiqariladi. Ta'mirga to'xtatilgan yoki zahiraga qo'yilgan qozonlarni ishga tushirishdan oldin gaz quvuridagi gaz-havo aralashmasini katta bosimli havo yordamida siqib chiqariladi. Gaz quvurining tozaligi olingan namunadan, gazda kislorodning 1% dan ortiq emasligi bilan tekshiriladi. Gaz quvurlari sekin-asta bir tomonga og'ib boradigan qilib ishlanadi, natijada kondensat (suv bug'larining yig'indisi) uloqtiriladi.

5. Elektr stantsiyalarda gaz qurilmalarini ishlatish Davlat texnik nazoratining "Gaz xo'jaligidagi xavfsizlik qoidalari" asosida olib boriladi. Elektr stantsiyalarda har kuni gaz quvurlari tekshirilib turiladi. Bu tashqi omillar (hidi,

ovozi chiqishi) orqali yoki gaz chiqishi mumkin bo'lgan joylarda sovun ko'pigi yordamida tekshiriladi.

### **Nazorat savollari.**

1. Uyurmalangan yondirgichlar qaysi turlarga bo'linadi?
2. Chang-havoli aralashma va ikkilamchi havo uyurmalangan yondirgichdan chiqishda yuqori haroratli gazning yonish yadrosi kayerda hosil bo'ladi?
3. To'g'ri oqimli yondirgichlarda yondirish uchun qaysi yoqilg'ilar ishlataladi?
4. Yondirgichlar - yonish qurilmasining asosiy elementi hisoblanib, ishlash tasnifi o'txonada nimaga bog'liqdir?
5. Bug'-mexanik forsunkalar qaysi bug' qozonlarida ishlataladi?
6. KVGM turkumli suv isitgich qozonlarida mazutni yoqish uchun nima ishlataladi?
7. Rotatsion forsunkalarning ishlash mexanizmi?
8. Yonish diffuzionli usuli nimani ko'rsatadi?

### **Foydalangan adabiyotlar.**

1. Zhongyang Luo Michaliq Agraniotiq, Low-rank Coalq for Power Generation, Fuel and Chemical Production, 2017
2. Tom Robl Anne Oberlink Rod Joneq, Coal Combustion Productq (CCPq), 2015
3. Rafael Kandiyoti Alan Herod Keith Bartle Trevor Morgan, Qolid Fuelq and Heavy Hydrocarbon Liquidq: Thermal Characterization and Analyqiq, 2016
4. Shamsiyev K.S. va boshqalar "Yuqori haroratli jarayonlar va qurilmalar"(darslik). T: "Voris-nashriyoni", 2020 yil -196b.
5. Shamsiyev K.S. va boshqalar " Qozon qurilmalari"(darslik). T:" Voris-nashriyoti", 2020 yil -226b.
6. Raximjonov R.T., Xoshimovam.A., Alimov X.A., «Yoqilg'i va yenish asoslari». -Toshkent. ToshDTU. 2002
7. Shoislomov A.Sh., Alimbayev A.U., Toshboyev N.K. «Yoqilg'i va yonish asoslari». – T.: TDTU 2001

### **3-mavzu: IESda organik yoqilg'ilarini yoqish jarayonida atrof muxit muhofazasi.**

Reja

1. Shlak hosil bo'lish jarayoni.
2. Suyuq va qattiq shlak mahsulotlarini chiqarish kameralari.

Tayanich suz va iboralar. Paragenerator, turbina, metan, etan, organik moddalar, suniy gaz, gorelka, sharikli tegirmon, dimosos, ventilyator, elektrofiltr.

#### **3.1 Shlak hosil bo'lish jarayoni.**

Yoqilg'ining yonmagan qismi qozonning gaz yulida qozon osti qoldiqlarning hosil qiladi, hamda yonish sharoitiga kura qo'l va shlak shaklida bulishi mumkin.

Shlak – bu mineral massa bulib, yuqori harorat ta'sirida, qattiq xolatiga ega bo'ladi.

Qo'l – yoqilg'ining kukun sifatli qoldig'idir. Qo'l ikki xil bo'lishi mumkin.

Uchuvchan qo'l – (uchib ketadigan qo'l) – kukun sifat fraktsiyasi bo'lib, tutun gazlar bilan birgalikda qozonning o'txonasidan chiqadi va yirikroq qo'lning fraktsiyasi – utxonaning sovuq varonkasiga qaytib tushadi.

Qozon ostidagi qoldiqlarning asosiy tarkibi  $K_2O_2$ ,  $Al_2O_3$ ,  $FeO$ ,  $Fe_2O_3$ ,  $CaO$ ,  $MgO$  oksidlariidan iborat бўлиб,  $CaK_2O_4$ ,  $MgK_2O_4$ ,  $FeK_2O_4$  sulfatlar ularning kam qismini tashkil qiladilar, ulardan ham kam miqdorda fosfatlar, asosmetallarning oksidlari  $K_2O$ ,  $Na_2O$ ,  $P_2O_5$ , ishqorli - -  $CaO$ ,  $MgO$ ,  $FeO$ ,  $K_2O$ ,  $Na_2O$  va boshqa birikmalar uchraydi.

